

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.09/2025.27.12. T.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

HUSANOV SHERZOD ABDIMANONOVICH

**SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TARMOQ
MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MODEL VA ALGORITMLARI**

05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Husanov Sherzod Abdimanonovich

Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tarmoq ma'lumotlarini tahlil qilish
model va algoritmlari..... 3

Хусанов Шерзод Абдуманнонович

Модели и алгоритмы анализа сетевых данных на основе технологий
искусственного интеллекта 24

Husanov Sherzod Abdimanonovich

Models and Algorithms for Analyzing Network Data Based on Artificial
Intelligence Technologies..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 50

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.09/2025.27.12. T.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

HUSANOV SHERZOD ABDIMANONOVICH

**SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TARMOQ
MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MODEL VA ALGORITMLARI**

05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PHD/T5888 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mo'minov Bahodir Boltayevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nosirov Xabibullo Xikmatullo o'g'li
texnika fanlari doktori, dotsent

Hamroyev Alisher Shodmonqulovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, k.i.x.

Yetakchi tashkilot:

Nukus davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.09/2025.27.12.T.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "9" - sentabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 207-59-42, e-mail: ilmiy_kengash@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (445 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "28" - avgustda tarqatildi.
(2026-yil "28" - avgustdagi 24-raqamli reestr bayonnomasi.)



M.M.Kamilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor, O'zFA akademigi

N.A.Egamberdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

N.O.Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

R. Nodir

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborot resurslarining asosiy qismini veb muhitda shakllanayotgan hujjatlar tashkil etmoqda. Global internet tarmog'ida har kuni milliardlab yangi veb-sahifalar yaratiladi, mavjudlari yangilanadi yoki modifikatsiyalanadi. Ushbu jarayon natijasida veb muhit ulkan hajmdagi, turli format va tuzilishga ega bo'lgan murakkab axborot tizimiga aylanib bormoqda. Veb hujjatlar o'z tabiatiga ko'ra faqat matndan iborat bo'lib qolmasdan, balki rasm, video, audio, giperhavolalar, skriptlar hamda metama'lumotlar bilan boyitilgan ko'p qatlamli strukturani tashkil etadi. Shu sababli ularni sun'iy intellekt texnologiyalar asosida kompleks tahlil qilish, o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda o'xshashlik darajasini baholash dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Jahonda turli maqsadlarga mo'ljallangan axborot texnologiyalarning nazariy asoslarini ishlab chiqishda sun'iy intellektni qo'llab tarmoq ma'lumotlarining veb sayt va sahifalarini tahlil qilish model va algoritmlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ma'lumotlarni klasterlash va intellektual tahlil tizimlarida keng qo'llanilmoqda. Xususan, qidiruv tizimlari foydalanuvchiga eng mos natijalarni taqdim etishda sahifalar o'rtasidagi semantik yaqinlikni aniqlashga tayanadi. Shu bilan birga, plagiatni aniqlash tizimlarida matnning yuzaki o'xshashligi emas, balki uning semantik va strukturaviy jihatdan qay darajada mos kelishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, mavjud yondashuvlarda ko'plab veb hujjatlar matnli elementlar asosida baholanadi, biroq veb sahifa tuzilmasining semantik va obyektiv komponentlari (HTML teglari, atributlar, DOM daraxtlari, giperhavolalar tarmoqlari, grafik obyektlar) e'tiborga olinmaydi. Natijada, veb hujjatlar o'xshashligi haqidagi qarorlar noaniq yoki yetarlicha ishonchli bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, veb hujjatlarning o'xshashligini faqat matn asosida emas, balki ularning strukturaviy, semantik va obyektga yo'naltirilgan xususiyatlarini kompleks hisobga olgan holda baholovchi yangi algoritmlar va matematik model ishlab chiqishga e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ham mazkur yo'nalishda suniy intellekt texnologiyalar asosida tarmoq va veb hujjat ma'lumotlariga ishlov berish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida amaliyotga joriy etish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning turli jabhalarida samaradorlikni oshirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish milliy raqamlashtirish dasturlariga kiritilgan bo'lib, unda "iqtisodiyot tarmoqlarida virtual va to'ldirilgan reallik, sun'iy intellekt, kriptografiya, mashinaviy o'rganish, katta ma'lumotlarni tahlil qilish va "bulutli" hisoblash texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish;" vazifalari belgilab berilgan. Shuningdek "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash" qarorida "katta ma'lumotlar"ni sun'iy intellekt asosida qayta ishlash va tahlil qilish" vazifasi belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, xususan tashkilotlar va ta'lim

muassasalari veb saytlarini tahlil qilishda, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktyabrdagi PF-189-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi 425-son "2025-2026-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari va boshqa mazkur faoliyatga tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijda chuqur va mashinali o'qitish texnologiyalarga asoslangan katta hajimli ma'lumotlarga ishlov berish hamda veb hujjatlarni tahlil qilish va baholash bo'yicha ilmiy izlanishlar jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Xorijiy olimlar Larry Page va Sergey Brin tomonidan PageRank algoritmi ishlab chiqilgan. Ular bu algoritmnini Stanford Universityda doktorantura davrida yaratgan. PageRank algoritmi keyinchalik Google qidiruv tizimining asosiy ishlash mexanizmlaridan biriga aylangan. Veb hujjatlar mazmunini semantik tahlil qilish sohasida Christopher D. Manning, Hinrich Schütze hamda Daniel Jurafsky tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar muhim o'rin tutadi. Ularning ishlari natijasida matnli ma'lumotlarni vektor fazoda ifodalash, semantik o'xshashlikni aniqlash va avtomatik tahlil qilish usullari ishlab chiqilgan.

Mashinali o'rganish va chuqur o'rganish texnologiyalarini rivojlantirishda Geoffrey Hinton, Yoshua Bengio va Yann LeCun kabi olimlarning hissasi katta. Ular tomonidan ishlab chiqilgan neyron tarmoqlar modellari (CNN, RNN, Transformer arxitekturasini) veb hujjatlardagi matn, rasm va boshqa multimodal ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini kengaytirdi. Tim Berners-Lee, Ricardo Baeza-Yates, Christopher D. Manning, Andrew Ng, hamda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

O'zbekistonda Respublikasida ham mashinali va chuqur o'qitish texnologiyalari yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlar O'zFA akademiklari T.F.Bekmurodov, M.M.Kamilov, professorlar Sh.X.Fozilov, M.M.Musayev, A.Nishanov, N.S.Mamatov, D.Muhamediyeva, M.Rahmatullayev, B.B.Mo'minov, N.Raximov va boshqa olimlar sun'iy intellekt sohalariga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Shu kabi olimlarning sun'iy intellekt va intellectual hisoblash sohasini rivojlantirishda muhim ilmiy asos vazifasini bajarmoqda.

O'zbekistonda ushbu soha kesimida muayyan ilmiy ishlar olib borilayotgan bo'lsada, bu yo'nalish haliyetarli darajada rivojlangan deb bo'lmaydi. Birinchidan,

ilmiy laboratoriyalar va yuqori hisovlash imkoniyatlariga ega markazlar kamligi katta hajimli ma'lumotlar bilan ishlashni cheklab qo'yadi. Ikkinchidan, lokal ma'lumotlar bazasi va milliy datasetlar yetishmasligi sababli ko'pgina tadqiqotlar xorijiy ma'lumotlar asosida olib borilmoqda, bu esa natijalarni mahalliy sharoitga mosligini pasaytiradi. Uchunchidan, soha bo'yicha mutaxassis kadrlar soni kam, natijada sun'iy intellekt texnologiyalar asosida tarmoq ma'lumotlarining veb sayt va sahifalarini tahlili qilish model va algoritmlari ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar O'zbekistonda hali to'liq shakllanmagan, yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tarmoq ma'lumotlarining veb sayt sahifalarini tahlil qilish model va algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sun'iy intellekt texnologiyalari asosida veb hujjat tuzilishi tahlilini amalga oshirish va takomillashtirish model va algoritmlarini tahlil qilish;

sun'iy intellekt texnologiyalari asosida veb-sayt hodisalarni tahlil qilish va loyihalashtirishga yo'naltirilgan gibridd algoritmini ishlab chiqish;

sun'iy intellekt texnologiyalari asosida veb hujjatning tuzilishini klasterlash algoritmlarini takomillashtirish;

veb hujjat obyektlari o'xshashligi asosida baholashning matematik modeli va algoritmini ishlab chiqish;

produksion bilimlar asosida obyekt-aloqa modelini va boshqarish algoritmini takomillashtirish;

veb hujjatga intellektual tahlil qilish va baholash dasturiy vositasini loyihalashtirish.

Tadqiqotning obyekti. Veb hujjatlar va ularning strukturali komponentlari (HTML elementlari, meta ma'lumotlar, giperhavolalar, kontent bloklari).

Tadqiqotning predmeti. Veb hujjat obyektlari o'xshashligini matematik modellashtirish, ularning semantik va strukturaviy aloqadorligini aniqlash algoritmlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda matematik modellashtirish, klasterlash, Jaccard o'xshashlik koeffitsienti, kosinus o'xshashligi, hamda mashinali o'rganish va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) usullari qo'llanilgan. Shuningdek, Python dasturlash tili, BeautifulSoup, Scikit-learn, TensorFlow kutubxonalarini hamda GPT texnologiyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sun'iy intellekt texnologiyalari asosida veb hujjat hodisalarni loyihalashtirishga yo'naltirilgan gibridd algoritmi ishlab chiqilgan;

veb hujjatlarning tuzilishi asosida obyektlarini orasidagi o'zaro o'xshashligini aniqlashga yo'naltirilgan metrikalarni tanlash algoritmlari ishlab chiqilgan;

veb hujjat obyektlarining hodisalari asosida o'zaro o'xshashligini baholashning matematik modeli va algoritmi ishlab chiqilgan;

produksion qoidalarini asosida bilimlarni loyihalash obyekt-aloqa modeli va boshqarish algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tarmoq ma'lumotlarini veb hujjatning tuzilishi asosida sinflashtirish modeli va algoritmlarini ishlab chiqildi obyektlarni o'zaro sinflashtirish amalga oshirilgan;

veb hujjatni havollari asosida baholash algoritmlarini ishlab chiqilib amaliy natijalari tadbiq etilgan;

hodisalarni loyihalashtirish nazoratiga mo'ljallangan gibrid algoritmi ishlab chiqildi veb hujjatdagi barcha hodislar o'rganilib ularga qayta ishlov berilgan;

veb hujjatning tuzilishi asosida sinflashtirish va baholash dasturiy vositasini loyihalashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Izlanishlarning sun'iy intellektga asoslangan usul va vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, tadqiqot apparat-dasturiy vositasi yordamida amalga oshirilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalarining o'zaro mutanosibligi sun'iy intellekt texnologiyalar asosida veb hujjatlarni tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan model va algoritmlari tashkilot veb saytlarida o'tkazilgan tajriba-sinovlarining ijobiy natijalari, tegishli guvohnomalar va tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati, unda veb-hujjatlar va tarmoq ma'lumotlarini tahlil qilish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari doirasida veb hujjatlarning tuzilishi asosida obyektlarini orasidagi o'zaro o'xshashligini aniqlashga yo'naltirilgan metrikalarni tanlash algoritmlari ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlar obyektlar o'xshashligini inobatga olgan holda klasterlash jarayonini amalga oshirib yangi ilmiy yechimlarni taqdim etadi. Shu tariqa tadqiqot klasterlash nazariyasi va mashenali o'qitish usullarini hamda o'xshashliklarni aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa taklif etilgan algoritmlar majmuasi veb hujjat ma'lumotlarini tahlil qilish imkoniyatini berishi bilan ifodalanadi. Ishlab chiqilgan algoritmlar asosida dasturiy majmua yaratilgan bo'lib, u amaliy ma'lumotlar tahliliy tizimlariga integratsiya qilish, hisoblash resurslarini tejash va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa tadqiqot natijalarining amaliyotga yo'naltirilganligini va keng qo'llanish imkoniyatiga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan veb hujjatga intellektual ishlov berish va baholash dasturiy vositasi asosida:

sun'iy intellekt texnologiyalari asosida veb hujjat hodisalarni loyihalashtirishga yo'naltirilgan gibrid algoritmi asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi "Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti"da rasmiy veb saytini tahlili qilish va rivojlantirish maqsadida amaliyotga joriy qilingan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2026-yil 2-iyundagi 33-8/4770-sonli ma'lumotnomasi). Natijada universitet rasmiy veb saytining (texnik, funksional, iqtisodiy, foydalanish) samaradorlik ko'rsatkichlari 1,26 barobarga oshirilgan;

veb hujjatlarning tuzilishi asosida obyektlarini orasidagi o'zaro o'xshashligini aniqlashga yo'naltirilgan metrikalarni tanlash hamda veb hujjat tuzilishini sinflashtirish algoritmlari asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita O'zbekiston

Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi "Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi"da ishlab chiqilgan axborot tizimlarini tahlili qilish va rivojlantirish maqsadida amaliyotga joriy qilingan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2026-yil 2-iyundagi 33-8/4770-sonli ma'lumotnomasi). Natijada markazda ishlab chiqilgan axborot tizimlarining (texnik, funksional, iqtisodiy, foydalanish) samaradorlik ko'rsatkichlari 1,8 barobarga oshirilgan;

vab hujjat obyektlarining hodisalari asosida o'zaro o'xshashligini baholashning matematik modeli va algoritmi asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita Raqamli texnologiyalar vazirligi qoshidagi "Raqamli hukumat loyihalarni boshqarish markazi"da axborot tizimlarini tahlili qilish va rivojlantirish maqsadida amaliyotga joriy qilingan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2026-yil 2-iyundagi 33-8/4770-sonli ma'lumotnomasi). Natijada markazda ishlab chiqilgan axborot tizimlarining (texnik, funksional, iqtisodiy, foydalanish) samaradorlik ko'rsatkichlari 1,3 barobarga oshirilgan;

produksion qoidalari asosida bilimlarni loyihalash obyekt-aloqa madeli va boshqarish algoritmi hamda vab hujjat tuzilishini sinflashtirish algoritmlari asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi "Toshkent davlat tibbiyot universiteti"da rasmiy vab saytini tahlili qilish va rivojlantirish maqsadida amaliyotga joriy qilingan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2026-yil 2-iyundagi 33-8/4770-sonli ma'lumotnomasi). Natijada universitet rasmiy vab saytining (texnik, funksional, iqtisodiy, foydalanish) samaradorlik ko'rsatkichlari 1,62 barobarga oshirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy natijalari 14 ta ilmiy ishlarda e'lon qilingan, ulardan 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya qilingan jurnallarda, jumladan 2 ta xorijiy jurnallarda va 2 ta Respublika jurnallarida, 1 ta xalqaro konferensiyada hamda EHM uchun dasturlarni rasmiy ro'yxatdan o'tganligi to'g'risida 2 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 124 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Tarmoq ma'lumotlar tahlilining nazariy asoslari va vositalari" deb nomlangan birinchi bobda vab-hujjatlarni tahlil qilish - elektron

hujjatlarni texnik usulda ko‘rib chiqish yoki baholash jarayoni hisoblanadi. Veb-hujjatlarni tahlil qilish usuli, boshqa ko‘plab tadqiqot usullari singari, ma’noni ochish, tushunish va xulosaga kelish uchun ma’lumotlarga intellektual yoki qisman intellektual ishlov berish orqali tekshirish va sharhlash muammolari o‘rganilib, ularni bartaraf etish yo‘llari va tadqiqot ishi masalasining qo‘yilishi keltirilgan.

1.1-paragrafda qaror qabul qilishga ko‘maklashuvchi tizimlarning predmet soxalardagi ahamiyati yoritilgan bo‘lib, ularning qo‘llanilishi va ishlab chiqishga oid har bir bosqichga mos usul va algoritmlar tadqiq qilingan. Bundan tashqari, jahonda veb hujjatlar tahlilida qo‘llanilib kelayotgan intellektual tizimlar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

1.2-paragrafda veb hujjat kontentlarga yo‘naltirilgan veb analitika modellari va algoritmlarining asosiy tushuncha va ta’riflari keltirilgan bo‘lib, unda qoida, bilimlar bazasi xususan veb-saytlarda foydalaniladigan fayl tuzilmalari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, intellektual tizimlar yaratishning zamonaviy yondashuvlari haqida ma’lumot keltirilgan.


1.3-paragrafda tarmoq ma’lumotlariga intellektual ishlov berish, mashinaviy o‘qitish, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), graf nazariyasiga asoslangan sun’iy intellekt modellaridan foydalanish hamda mashinaviy o‘qitish algoritmlari yordamida veb hujjatlar o‘rtasidagi yashirin bog‘liqliklarni aniqlash, ularni avtomatik sinflashtirish va klasterlash imkoniyati, nazoratsiz o‘qitish algoritmlari, xususan klasterlash usullari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Veb hujjat tuzilishi va tahliliga yo‘naltirilgan modellar va algoritmlar”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobi 5 ta paragrafdan iborat bo‘lib, unda Veb hujjating tuzilishi yaxshilash va tahlilni amalga oshirish uchun veb-metodlar yordamida saytni o‘rganish, rejalashtirilgan tartib-protsedura asosida sayt tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash, veb-grafikani qurish va tahlil o‘tkazish, ehtiyoj mezonini ishlab chiqish, mezon bo‘yicha tuzilmani yaxshilaydigan nazorat qoidalarini aniqlash va sayt tuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiya va takliflarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Natijada, sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan vebometrika modellari veb hujjatlarning tuzilishini takomillashtirish, ularni avtomatik baholash va tarmoq ma’lumotlarini chuqur tahlil qilishda samarali ilmiy-amaliy yechim sifatida asoslab berilgan.

Kompyuter tarmoqlarida foydalaniladigan veb hujjatlarda 8 turdagi hodisalar loyihalandi.

Bundan veb hujjatdagi barcha hodisalar o‘zaro bog‘langan va maxsus loyihalashtirishni nazoratga olish algoritmi yoki yondashuvini talab qiladi. Veb hujjatlarda hodisalarni to‘g‘ri loyihalash uning ish sifatini oshiradi va kontent ma’lumotlarining to‘g‘ri saralanishini ta’minlab beradi. Hodisalarni loyihalash nazorati amalga oshirish quyidagicha algoritm quydagi 1-rasmda tavsiya qilinadi.



1-rasm. Hodisalarni loyihasini nazorat qilishning umumiy algoritmi.

Veb saytlar va veb hujjatlarning tarmoqdagi ahamiyatini aniqlashga yo'naltirilgan PageRank reyting algoritmini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Internet muhitida veb sahifalar o'zaro giperhavolalar orqali bog'langan murakkab tarmoqni hosil qiladi. Bunday tarmoqni samarali tahlil qilish va sahifalarning nufuzini aniqlash graf nazariyasiga hamda iterativ hisoblashga asoslangan intellektual yondashuvlarni talab etadi.

Tadqiqotda veb sahifalar tugunlar, ularning o'zaro havolalari esa yo'naltirilgan qirralar sifatida qaralib, veb muhit yo'naltirilgan graf modeli ko'rinishida ifodalangan. Ushbu graf asosida sahifalarning nisbiy ahamiyatini aniqlashda PageRank algoritmi qo'llanilgan. Algoritmning asosiy g'oyasi shundan iboratki, sahifaning nufuzi unga ishora qilayotgan sahifalar soni va ularning o'z nufuziga bog'liq holda aniqlanadi.

PageRank algoritmining an'anaviy modeli tahlil qilinib, uning hisoblash murakkabligi va katta hajmdagi tarmoq ma'lumotlari bilan ishlashdagi cheklavlari ko'rsatib berilgan. Shu asosda, PageRank reytingini samarali hisoblashga yo'naltirilgan takomillashtirilgan algoritmik yondashuv taklif etilgan. Taklif etilgan usul iterativ hisoblash jarayonini optimallashtirish, ortiqcha hisob-kitoblarni kamaytirish hamda katta hajmdagi veb sahifalar to'plamida tezkor va barqaror natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Natijada, taklif etilgan PageRank reytingini samarali hisoblash algoritmi veb saytlar va veb hujjatlarni tarmoq muhitida yanada aniq baholash, qidiruv tizimlari, veb analitika va tarmoq ma'lumotlarini tahlil qilish masalalarida qo'llashda ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Veb hujjatning tuzilishi va havollalari asosida klasterlash modellarini tanlash algoritmini yaratishni ikkita alohida algoritm asosida tadqiq qilinadi. Chunki veb

hujjatning tuzilish har bir sahifada mavjud va uni klasterlashda alohida yondashuvni amalga oshirish lozim. Veb hujjatning havolalari har bir sahifa bilan bog‘liq.


Birinchi yondashuv. Berilgan obyektlarning mos ravishda ikkitasining xos hususiyatlari bo‘yicha o‘zaro o‘xshashlikni o‘lchash metrikalari. Bunda maxsus *BiDist* kutubxonasi yaratiladi va uning asosiy funksiyasi quyidagicha:

$$d = BiDist(x, y, metric_{name}, outType, rw)$$

Bunda x, y – obyektning hususiyatlar vetori, $metric_{name}$ - metrika turi, $outType$ -o‘xshashlik chiqish tipi, rw - sozlamalar.

Foydalanishda metrika usullari yoki masofa funksiyasi sifatida quyidagilarni tanlab olish mumkin: 'braycurtis', 'kanberra', 'chebyshev', 'cityblock', 'korrelyatsiya', 'kosinus', 'dice', 'evklid', 'hamming', 'jaccard', 'jensenshannon', 'kulczynski', 'mahalanobis', 'match', 'minkowski', 'rogerstanimoto', 'russellrao', 'seuclidean', 'sokalmichener', 'sokalsneath', 'sqeuclidean', 'yule'.

Ushbu yuqorida keltirilgan masofa o‘lchash metrikalari kengaytirilgan modellar keng tarqalgan. Veb hujjatlardagi obyektlarni o‘zaro munosabati ularning o‘xshashligini belgilaydi va bu metrikalar asosda aniqlanishi maqsadga muvofiq. Bu matematik ifodalarning hammasini birlashtirib, instrumental kutubxona yaratish lozim.




2-rasm. Obyektlarning o‘zaro o‘xshashligi uchun klasterlash algoritmi.

Ikkinchi yondashuv. Berilgan ikki veb hujjatning obyektlarning mos ravishda xos ikki xususiyatlari bo'yicha o'zaro o'xshashlikni o'lchash metrikalari. Bunda maxsus $cDist$ kutubxonasi yaratiladi va uning asosiy funksiyasi quyidagicha:

$$d = cDist(x_a, x_b, metric_{name}, outType, rw)$$

Bunda x_a, x_b – mos ikki obyektning xususiyatlar vektori, $metric_{name}$ - metrika turi, $outType$ - o'xshashlik chiqish tipi, rw - turli sozlamalar.

Ushbu yuqorida keltirilgan masofa o'lchash metrikalari kengaytirilgan modellar keng tarqalgan. Bu matematik ifodalarning hammasini birlashtirib, instrumental kutubxona yaratish lozim.



3-rasm. Ikki veb hujjatning o'zaro o'xshashligi uchun klasterlash algoritmi.

Ikki veb hujjatning o'zaro obyektlarining hususiyatlarini o'xshashligini klasterlash modeli tanlash algoritmi ikki va undan ortiq veb hujjatlar tuzilmasidagi obyektlarning o'xshashligini hisoblash keltirilgan. Unda ikki veb hujjatning to'liq yo'li ko'rsatiladi va tashkiliy protseduralarga o'tiladi. Agar tashkiliy protseduralarda kamchilik bo'lsa, qaytadan boshlaydi, aks holda veb hujjatdagi obyektlarni aniqlash qism algoritmi ishga tushadi. Obyektlarning taxlilidan so'ng mos ravishda


obyektlarga mos xususiyatlar vektori yaratiladi. Bu jarayon veb hujjatlarning soniga mos holda takrorlanadi. Ikki vektordagi hususiyatlar taxlil qilinib, mos mantiqiy vektor hosil qidinadi. Ekspertlar va bilimlar bazasidan foydalanib, hususiyat tipiga mos metrika tanlash amalga oshiriladi. Natijalar ikkilangan matritsa ko'rinishida mos ravishda ikki veb hujjatdagi obyektlarning mos hususiyatlari asosida o'xshashlik qiymatlari hisoblanadi.

Veb hujjat obektlari o'xshashligini hisoblash yuqoridagi paragrafda keltirilganidek, ikkiga bo'lib obyektlarning o'xshashligi asosida baholash modellari alogoritmlarini taklif etiladi.

Bir veb hujjat obektlari o'xshashliklarini Q matritsi ko'rinishida berilgan bo'lsin $Q = (q_{i,j})$, mos ravishda veb sahifaning i va j obyektlarining o'xshashligidir. Obyektning har bir hususiyati bo'yicha yo'naltirilgan grafning bir tuguni sifatida qaralsa, veb hujjatning obyektlari o'xshashligining graf model qurish mumkin. Yo'naltirilgan grafni $D = (V, E)$ kabi ifodalasak, unda V grafning uchi va bu holda obyektlari grafning uchlari bo'ladi. E – esa tartiblangan to'plam bo'lib, $e_i \in V, i = 1, \dots, n, n$ –obyektlar soni.

Graf uchiga kiriuvchi yoylarni $e_i^I \in V$, chiquvchi yoylarni $e_i^O \in V, i = 1, \dots, n, n$ –obyektlar soni bo'lsin. Bu yoylarning uchi kirish yoki chiqish vaznlari q_{ij} deb, i -obyektning j -obyektiga o'xshashligi olinadi.

Yo'naltirilgan grafni quyidagicha yaratib olish mumkin



4-rasm. Veb hujjat obyektlarining o'xshashligiga asoslangan graf modeli.

Veb hujjat obyektlarining o'xshashligiga asoslangan graf modelda o'xshashlik vaznlari keltirilmagan. Bu vaznlarni matritsasi ko'rinishida quyidagicha ifodalanadi

$$Q = \begin{pmatrix} q_{1,1} & q_{1,2} & q_{1,3} & \dots & q_{1,n} \\ q_{2,1} & q_{2,2} & q_{2,2} & \dots & q_{2,n} \\ q_{3,1} & q_{3,2} & q_{3,3} & \dots & q_{3,n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ q_{n,1} & q_{n,2} & q_{n,3} & \dots & q_{n,n} \end{pmatrix}$$

Veb hujjat obyektlarining graf modeli asosida o'xshashlikgi asosida baholash mumkin.

Veb hujjat obyektlarining o'xshashligi matritsasi bu to'liq simmetrik matritsa hisoblanmaydi, ya'ni qiymatlari bir xil emas. Matritsaning qiymatlari asosida e_i^I kiruvchi Q ning qator, ya'ni $(q_{i,1}, q_{i,2}, \dots, q_{i,n})$ va e_j^O chiquvchi Q ning ustuni, ya'ni $(q_{1,i}, q_{2,i}, \dots, q_{n,i})$ yoylarning qiymatlari qabul qilinsin.

Veb sahifadagi obyektning faolligini baholashda uning o'xshashligi matritsasidan quyidagi ifoda asosida xulosalash taklif qilinadi.

$$W_j = \sum_{i=1}^n q_{i,j} - \sum_{i=1}^n q_{j,i}, j = 1..m \quad (1)$$

Yuqoridagi (1) ifodaning qiymatidan quyidagi xossani kiritish lozim

1. Agar $W_j > 0$ bo'lsa, q_j obyektidan boshqa obyektga o'tilgan va bu obyekt veb sahifa uchun o'ta muhim hisoblanadi.

2. Agar $W_j = 0$ bo'lsa, q_j obyektidan boshqa obyektga o'tilgan va boshqa obyektidan bu obyektga kirishlar soni teng, veb sahifa uchun yaxshi (qoniqarli) obyekt hisoblanadi.

3. Agar $W_j < 0$ bo'lsa, boshqa obyektidan q_j obyektga o'tilgan va bu obyekt veb sahifa uchun o'ta qoniqarsiz hisoblanadi. Bu obyektни tezroq takomillashtirish yoki olib tashlash lozim.

Tashkilotning oldiga qo'ygan reja tadbirlariga o'zaro o'xshash obyektlar orqali indekslashtirish va bir vektorga joylashtirish mumkin. Bu esa o'zaro o'xshash obyektlarning veb hujjatdagi reytinglarini aniqlash orqali amalga oshirish mumkin.

Veb hujjatdagi obektlarning reytingini aniqlashda foydalanuvchi shu obyektga murojaatlar soni, ya'ni kelish va ketishlar sonini aniqlash lozim bo'ladi. Bunda veb sahifada kursorning harakatini boshqarish yoki sichqonchaning harakatini boshqarish va uning obyektlari qadamlarini sanashdan iborat. Bunda sichqonchaning quyidagi 5 ta asosiy hodisasiga tayanish mumkin Ularga:

1. MuoseDown – obyektning ta'sir doirasida sichqonchaning x kordinatisi bo'yicha kelish harakati;

2. MouseUp - obyektning ta'sir doirasida sichqonchaning y kordinatisi bo'yicha kelish harakati;

3. MouseMove – obyektning ta'sir doirasida sichqonchaning chiqib ketish xarakati;

4. Click (mouseClick) – obyektning ta'sir doirasida sichqonchaning tugmasi bir marta bosish orqali, tanlanganlik harakati;

5. DbClick (mouseDbClick) - obyektning ta'sir doirasida sichqonchaning tugmasi ikki marta bosish orqali, tanlanganlik harakati, agar bu hodisa bo'lsa, boshqa obyektga o'tish harakatini beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha, sichqinchaning harakatlari barcha dasturlash tillari va skript tillari mavjud va loyihaltirilgan. Veb hujjatning har bir sahifasida yozilgan obyektlar bu hodisalarni boshqarish mumkin. Bunda quyidagicha yondashuvlar taklif etiladi.

1. MuoseDown va MouseUp hodisasi har bir obyektga yagona bir identifikator i ($i=0$)e'lon qilinadi. Bu $i++$ amalni real vaqt davomida obyektga bo'lgan hodisada bir marta amalga oshiradi.

2. MuoseMove hodisasi har bir obyektga yagona bir identifikator j ($j=0$)e'lon qilinadi. Bu $j++$ amalni real vaqt davomida obyektga bo'lgan hodisada bir marta amalga oshiradi.

3. Click hodisasi har bir obyektga yagona bir identifikator c ($c=0$) e'lon qilinadi. Bu $c++$ amalni real vaqt davomida obyektga bo'lgan hodisada bir marta amalga oshiradi.

4. DbClick hodisasi har bir obyektga yagona bir identifikator dc ($dc=0$) e'lon qilinadi. Bu $dc++$ amalni real vaqt davomida obyektga bo'lgan hodisada bir marta amalga oshiradi.

Bu o'zgaruvchilar o'zlari veb sahifaning ishga tushirgandan boshlab, to statistik ma'lumotlar olguncha o'z vazifasini bajaradi. Har bir obyektga bu 4 ta hodisalar doimiy ishlab turadi va quyidagi ifoda bilan hisoblanadi.

$$E_I = i + c, \quad E_O = j + dc \quad (2)$$


E_I – bu obyektga kiruvchi murojaatlar va E_O – obyektga chiquvchi murojaatlar. Hodisalarning xususiyatlari inobatga olinib ikkiga ajratilgan.

Hodisalarga asoslangan kirish va chiqish murojaatlarni graf model ko'rinishida ifodalash orqali axborot modelini qurish mumkin. Bunda qaraliyotgan joriy obyektning grafning uchi va yo'ylari sifatida kiruvchi, chiquvchi murojaatlarni olish mumkin.

Yo'naltirilgan grafni $G = (O, E)$ kabi ifodalasak, unda O grafning uchi va bu holda obyektlar grafning uchlari bo'ladi. E – esa tartiblangan to'plam bo'lib, mos holda kiruvchi va chiquvchi murojaatlar, $e_i \in V, i = 1, \dots, n, n$ –obyektlar soni.

Graf uchiga kiruvchi murojaat yo'ylarni $e_i^I \in V$, chiquvchi murojaat yo'ylarni $e_i^O \in V, i = 1, \dots, n, n$ –obyektlar soni bo'lsin. Bu yo'ylarning uchi kirish yoki chiqish vaznlari q_{ij} deb, i -obyektning j -obyektiga kirish yoki chiqish murojaati soni olinadi.

Yo'naltirilgan grafni quyidagicha yaratib olish mumkin



5-rasm. Veb hujjat obyektlarining murojaatlariga asoslangan graf modeli.

Umuman olganda bir veb hujjatda n ta veb sahifa va bu sahifalarning har birida m ta obyekt bo'lsin. Jami obyektlar soni $N = nm$ bo'ladi. Veb hujjatning kirish va chiqish murojaatlarini M matritsiya ko'rinishida ifodalash mumkin. Bunda quyidagilar o'rinli bo'lsin:

1. M matritsaning har bir mos qatori mos holda chiqish murojaatlarini bersin.
2. M matritsaning har bir mos ustuni mos holda kirish murojaatlarini bersin.
3. Bu holda M matritsaning diagonal elementlari qiymati $E_D = (E_I + E_O)/2$ ifoda bilan hisoblanadi.

M matritsaning umumiy ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi:

$$M = \begin{pmatrix} E_{D_{1,1}} & E_{O_{1,2}} & E_{O_{1,3}} & \dots & E_{O_{1,n}} \\ E_{I_{2,1}} & E_{D_{2,2}} & E_{O_{2,3}} & \dots & E_{O_{2,n}} \\ E_{I_{3,1}} & E_{I_{3,1}} & E_{D_{3,3}} & \dots & E_{O_{3,n}} \\ \vdots & \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ E_{I_{n,1}} & E_{I_{n,2}} & E_{I_{n,3}} & \dots & E_{D_{n,n}} \end{pmatrix}$$

M matritsiyadan har bir E_I^k, E_O^k obyekt uchun quyidagi ifoda o‘rinli

$$E_I^k = \sum_{i=1, i \neq k}^N E_{I_{k,i}}, E_O^k = \sum_{i=1, i \neq k}^N E_{O_{k,i}} \quad k = 1 \dots N \quad (3)$$

(2) ifodadan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Agar har bir k uchun $E_I^k - E_O^k < 0$ bo‘lsa, bu obyektни yangilash yoki o‘zgartirish kiritish kerak.


2. Agar har bir k uchun $E_I^k - E_O^k = 0$ bo‘lsa, bu obyekt yaxshi qoniqarli hisoblanadi.

3. Agar har bir k uchun $E_I^k - E_O^k > 0$ bo‘lsa, bu obyekt juda yaxshi va bu kabi obyektlarni ko‘paytirish lozimligini bildiradi.

Yuqoridagi taklif asosida veb hujjat uchun M matritsiyani o‘zgartirilgan M^* varianti kelib chiqadi.

$$M^* = \begin{cases} 1, & E_I^k - E_O^k > 0 \\ 0, & E_I^k - E_O^k = 0 \\ -1, & E_I^k - E_O^k < 0 \end{cases} \quad (4)$$

M^* vektorning qiymatlari asosida veb hujjatning o‘zgartirish talab qilinayotgan obyektlarini vizual ko‘rish imkoniyati yaratiladi.



6-rasm. Veb hujjatning obyektlariga murojaatlar grafigi.

Takomillashtirilgan PageRank reytingini samarali hisoblashda qavariq optimallashtirish va Frank-Vulfaning shartli gradienti usullaridan foydalanilgan. Dasturiy vositasini loyihalashda obyekt va predmetini aniqlab olinadi.

Dasturiy vositaning obyekti: veb-graf va undagi giperhavolalar to‘ri.

Dasturiy vositaning predmeti: veb-sahifalarning PageRank reytingini hisoblashning qavariq optimallashtirish va Frank-Vulfaning shartli gradienti usullari asosida tokomillashtirilgan algoritmlar.

Dasturiy vositaning maqsadi: veb-sahifalarning reytingini tezkor va aniq hisoblash va natijalarni kerakli ma'lumotlar bazasida, mos holda integratsiyani ta'minlashdan iborat.

Dasturiy vositani loyihalashda oldingi paragraflarda keltirilgan algoritmlar va yordamichi algoritmlardan foydalaniladi. Bu quyidagi 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich. PageRankning modelini tanlash va loyihalashtirish.


2-bosqich. Iteratsion usullarni (Power Method, Jacobi, Gauss-Seidel) solishtirish.

3-bosqich. Mos parallel algoritm ishlab chiqish.

4-bosqich. Dasturiy vositani zaruriyat bor (Python/Java/C++) muhitda ishlab chiqish.

Har bir bosqichni o'ziga xos yondashuvlar asosida amalga oshirish mumkin.

